



Ozoda XAKIMBAYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi
E-mail: hakimboyevoazoda@gmail.com

NamMQI o‘qituvchisi, PhD P.Botirova taqrizi asosida

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ERKAK VA AYOLLARNING IJTIMOY VA FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARINI AKS ETTIRUVCHI MAQOLLARNING IFODALANISHI

Annotatsiya

Ilm fanning rivojlanishi natijasida gender tushunchasi har bir sohaga kirib kelayotganligi hechkimga sir emas. Tilshunoslikda ham genderologiyani o‘rganish ko‘plab olimlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Har bir sohada erkak va ayol tushunchalariga nisbatan ta‘riflar berilib, ularning jamiyatdagi roli, ijtimoiy xususiyatlari dolzarb mavzuga aylanmoqda. Mazkur maqolada aynan erkak va ayollarning ijtimoiy fiziologik xususiyatlari maqollarda qanday aks ettirilganligini ikki til misolida misollar yordamida ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Maqol, erkak, ayol, ijtimoiy xususiyat, fiziologik xususiyat, gender, genderologiya, ingliz tili, o‘zbek tili, mardlik, jasurlik, frazeologizm, mehnatsevarlik, go‘zallik, ojizlik.

ВЫРАЖЕНИЕ ПОСЛОВИЙ, ОТРАЖАЮЩИХ СОЦИАЛЬНО-ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МУЖЧИН НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Ни для кого не секрет, что по мере развития науки понятие пола проникает во все сферы. В лингвистике также изучением гендерологии занимаются многие ученые. В каждой области даются определения мужских и женских понятий, актуальной темой становится их роль в обществе, социальные особенности. В данной статье мы рассмотрим на примерах на примере двух языков, как именно социальные физиологические особенности мужчин и женщин отражаются в пословицах.

Ключевые слова: Пословица, мужской, женский, социальная характеристика, физиологическая характеристика, пол, гендерология, английский язык, узбекский язык, храбрость, фразеология, трудолюбие, красота, слабость.

EXPRESSION OF PROVERBS REFLECTING SOCIAL AND PHYSIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MEN IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

It is no secret that as a result of the development of Science, the concept of gender is penetrating into every sphere. Also in linguistics, the study of genderology is carried out by many scientists. In each area, definitions are given in relation to the concepts of Man and woman, their role in society, social characteristics are becoming an urgent topic. In this article, we will consider exactly how the social physiological characteristics of men and women are reflected in Proverbs using examples from two languages.

Key words: Proverb, male, female, social characteristic, physiological characteristic, gender, genderology, English, Uzbek, bravery, phraseology, hard work, beauty, weakness.

Kirish. Inson o‘ziga xos psixologik karakter bilan dunyoga kelib, uning fe‘l-atvori psixologik va ijtimoiy omillar ta‘sirida shakllanadi va o‘zgaradi. Ko‘plab ijtimoiy psixologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dunyoda erkaklarga xos bo‘lgan sifatlar: faollik, tajovuzkorlik, raqobatdoshlik, botirlik, ishbilarmonlik, o‘ziga bo‘lgan ishonch, haqiqatgo‘ylik, qattiqqo‘llik, talabchanlik, mantiqiy fikr yuritish va h.k. lar kiradi. Ayollarga nisbatan ko‘proq xos bo‘lgan sifatlar esa qiziquvchanlik, sergaplik, mijg‘ovlik, xayolparastlik, ikkilanuvchanlik, yumshoqlik, zaiflik, kamtarlik, itoatkorlik va h.k. lardir. Erkak kishining siy mosi jangchi, ovchi, himoyachi kabi holatlarda tasvirlanadi. Ayollarning siy mosi uy bekasi, sevimli mahbuba, go‘zallik ma‘budasi sifatida gavdalanadi. Lekin bu siymolar doim ham til material tahlili natijalari bilan to‘g‘ri kelavermaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Har ikki tilda botirlik va jasurlik erkaklarga xos bo‘lgan xususiyatlar ekanligi tasdiqlandi:

Botirlik va jasurlik: game as a cockerel – o‘ta ketgan dovyurak, mard; full of bush fire – juda g‘ayratli, xushchaqchaq, jur‘atli; a man of his hands – tajribali, usta, mohir; a man’s man – haqiqiy erkak; play the man – erkakcha yo‘l tutmoq; like a Trojan – qahramonlarcha, jasoratli.

Kuchsizlik, nimjonlik, qat‘iyatsizlik xususiyatlari ham erkaklarga xos bo‘lishi mumkin: have too much of his mothers blessing – o‘ta uyatchan bo‘lmoq; a Miss Nancy – nimjon “qiz bola”; play the woman – yig‘lamoq, qo‘rqmoq, lapashang; a fall guy – hamma baloga to‘g‘anoq odam, qurbon; faint heart never won fair lady – qo‘rqoq yurak, ayol yuragini zabt eta olmaydi.

Ayniqsa, erkaklarga nisbatan ko‘p hollarda “onasining erkasi, arzandasi” nomining biriktirilishi ingliz tilida ko‘p kuzatildi: mummy’s boy – onasining erkatoyi; mother’s darlings make but milk-sop heroes – onasining erkatoyidan qahramonlik chiqmaydi; a weak sister – tannozi oyimtila, onasining erkatoyi; be pinned to ones mothers apron strings – onasining izmida bo‘lmoq. E‘tibor bersak, erkaklarning salbiy jihatlarini “ayol” semantik maydoni bilan bog‘liq so‘zlar orqali ifodalalayapti: Nice Nelly – ikki yuzlamachi; an old woman – behalovat erkak, “xotinchalish”, shalviragan.

O.A. Kolosovanning ingliz va amerika materiallari asosida olib borgan tadqiqotlarida erkaklarning ijobiy baholarining konseptual makoni ayollarnikiga qaraganda sezilarli darajada ko‘pligi va “erkak” referentini salbiy baholash uchun ayollarga biriktirilgan stereotiplardan foydalanilganligi aniqlangan [4].

Erkakning ayolga bo‘y sinishi ham pastkash va nomunosib xislatlardan hisoblanadi. Bu xislat o‘zbek frazeologiyasida aks etmagan: petticoat government – ayol hukmronligi, zo‘rligi; the gray mare – xotinning qo‘li ostida bo‘lmoq; the gray mare is better horse – uyda hukmron ayol; be tied to one’s wife’s apron strings – xotinning izmidan chiqmaslik.

Ingliz tilida erkaklarga xos bo‘lgan mehnatkashlik xislatlarini tasvirlovchi frazeologik birliklar miqdori juda kamligi kuzatildi. O‘zbek tilida esa, aksincha, ko‘pchilikni tashkil etadi: Mr.Fixit – mohirona sozlaydigan, yasaydigan odam, a man of his hands – qo‘lidan har bir ish keladigan mohir, ustasi – farang; early to bed and early to rise, make a man healthy, wealthy and wise – kim erta tursa sog‘lik, boylik va aql orttiradi; Yigit degan er bo‘lar, mehnat ko‘rsa sher bo‘lar; Yigit husni mehnatda; Yigitning

baxtini mehnat ochar; Mardning mardi maydonda sinalar, yigitning yigiti mehnatda. Ingliz tili frazeologizmlarda (jismoniy) mehnatning muhimligi kuzatilmadi: a drug store cow boy – bekorchi, tanbal, takasaltang; lounge lizard – daydi, bekorchi.

Erkaklarga xos jihatlardan oliyjanoblik ingliz tilida quyidagicha tasvirlanadi: one of Natures gentleman – haqiqiy jentlmen, benuqson xulq-atvorga ega bo'lgan inson; big brother – vasiy, homiy; a pukka sahib haqiqiy, chin jentlmen; make an honest woman of smb. – buzuz xotinga (o'ynashga) uylanib, uning aybini berkitish maqsadida munosabatlarini nikoh bilan qonunlashtirish. Uddaburonlik: a fast worker – ishiga pishiq, bo'sh kelmaydigan.

Erkaklarning salbiy xususiyatlarini tasvirlovchi misollarda qahr-g'azablilik, shafqatsizlik, razillik kabi xususiyatlar kuzatiladi: the man of blood and iron – qahrli, rahm-shafqatsiz inson, a four-letter man – razil, tuban, odamgarchiligi yo'q shaxs; Tom Thumb – notavon, pastkash. Takabburlik, mag'rurlik: a smart Aleck – o'ziga bino qo'ygan, surbet; proud as Lucifer – iblisday, kalondimog', takabbur. Aytish joizki, erkaklar fe'l-atvorining qattiqligi, ularning ijobiy xislatlaridan biri hisoblanadi. Zero, xotinga qo'l ko'tarish ham ularga nisbatan tez-tez qo'llanilgan jazo choralaridan biri hisoblanadi:

Qudali xotin quyruq yer, erli xotin kaltak.

Erim urmaydi dema, bolam siymaydi dema.

Navbatdagi leksik-semantik maydon “sergaplik”. Bu xususiyat azaldan faqat ayollarga xos bo'lib, maskara va chin hazillarga sabab bo'lgan: talk Billingsgate – bozorchi xotinga o'xshab urishmoq, an old wife – g'iybatchi, “qari juvon”; an old cat – mijg'ov, qari kampir; a chatter box – vaysaqi, sergap; chatter like a magpie – zag'izg'onga o'xshab chirillamoq; wash ones dirty linen in public – yudagi gapni ko'chaga olib chiqmoq. Ayol xarakteriga xos jihatlardan biri uning qaysarligi, chegaradan chiqib ketishi yoki o'zboshimchaligidir. Masalan: fling ones bonnet over the mill/throw ones cap over the windmill – o'ylamasdan ish tutish, chegaradan chiqib ketish. Sotsiologik tadqiqotlar, shuningdek, til materialining gender nuqtai nazaridan tahlili shuni ko'rsatadiki, erkaklar uchun tashqi ko'rinish uchalik muhim bo'lmagan omil, biroq ayollarda esa ichki go'zallikka qaraganda tashqi go'zallikni qadrlashadi. Ingliz tilida tashqi ko'rinish subkonseptining gender tahlili ham tashqi ko'rinishning erkaklar uchun muhim ahamiyat kasb etmasligini tasdiqlaydi. “Ingliz ayolining jozibador ko'rinishi uning hayotda o'z o'rnini topishida muhim atribut sanaladi” [5].

Erkaklarning semizligi ularning tashqi ko'rinishidagi kamchiliklardan hisoblanadi: fat as an olderman – qorinli, semiz odam; baron of beef – “biqin go'sht, lahm go'sht”.

Erkaklarning tashqi ko'rinishini ifodalash uchun tana a'zosining yuz qismidagi belgilardan tashkil topgan frazeologizmlar ham uchraydi: raise ones bristles – achchiqlanmoq, jahli chiqmoq; a blue-eyed boy – erkato'y, arzanda; a young shaver – o'spirin yigit; old moustashe – keksa, tajribali harbiy kishi.

Bundan tashqari, qizlarning orzusidagi ideal shaxs sifatida erkaklarga yuksak baho berilgan, chunki ideal shaxsning albatta tashqi ko'rinishi ham chiroyli bo'lishi kerak: the answer to a maidens prayer – chiroyli bo'ydoq, havas qilgudek kuyov, prince charming – ertakdagi shahzoda, orzusidagi bo'lajak kuyov.

Ayollarning tashqi ko'rinishini tasvirlovchi frazeologik birliklarga kelsak, ular erkaklarni tasvirlovchi frazeologik birliklarga nisbatan ikki barobar ko'pdir. Ingliz tilida ayollarning tashqi ko'rinishi ko'p hollarda ularning shaxvoniy obyekt sifatidagi tasvirida ifodalanadi: sex appeal – o'ziga jalb etuvchi; a hot mamma – ehtirosli juvon; there's many a good tune played on an old fiddle – eski skripkada ko'plab yaxshi kuylarni chalish mumkin (ishq-muhabbati qaynab turgan yosh bo'lmagan ayol haqida). Ingliz ayolining ko'rinishini quyidagi holatlarda kuzatish mumkin: Tana a'zosining yuz qismidan tashkil topgan frazeologizmlar: her face is her fortune – uning boyligi chiroq; pretty as a picture – juda maftunkor; fancy face – do'ndiqcha chiroyligina, painted to the eyes – qattiq bo'yangan ayol; gullarga qiyoslab: fair as a lily – nilufar guldek chiroyli; blush like a rose – atirguldek qizarib ketmoq; a rose between two thorns – ikkita tikan orasidagi atirgul; ayollarning qaddi-qomati: sweater girl –

chiroyli siynali ayol; a slip of a girl – kelishgan, qaddi qomatli, nozikkina qiz.

Frazeologik birliklarning ko'p qismi ayollarning umumiy ko'rinishini tasvirlaydi, ya'ni ular aynan bir a'zo orqali tasvirlanmaydi. Masalan: a slick chick – hushro'y, sohibjamol; a glamour girl – go'zal, juda kelishgan; a Teddy girl – g'ayrioddiy modaga berilgan qiz; a hot number – jo'shqin, otashin, “yondiruvchi” ayol; a dolly bird – chiroyli, bezangan qiz. Quyidagi misolda “tashqi ko'rinishning” erkaklarga nisbatan ayollar uchun muhim ekanligi yaqqol ko'rinish turibdi: A man is old as he feels and a woman as old as she looks – erkak kishining yoshi o'zini qanday his etishiga qarab aniqlanadi, ayolniki esa ko'rinishiga qarab. I.V Zikova ushbu paremiyani ingliz ayolini tasvirlashdagi eng yorqin (ядерный) konseptual asos sifatida ko'radi [8]. Ingliz tilida esa ayolning ko'rinishi uning yoshiga qarab emas, balki o'zini his etishiga ko'ra belgilanadi. Buni tasdiqlovchi maqollar quyidagicha:

Xotinning chiroyi erdan;

Mard xotinini qaritmas, botir otin horitmas.

O'rnatib qolgan stereotiplar ayolni zoonimlar bilan qiyoslaganda, uning salbiy jihatlarini ham ifodalab keladi: old duck – kampir; a social butterfly – bema'ni qiz; a hen party – qizlar bazmi; daughter of the horse leech – ot zulugining qizi; plump as a partridge – kaklikday semiz, do'mboqqina.

Erkaklar ham bunday stereotiplarga ega: a gay dog – axloqi buzuz odam, suyuqoyoq; a fighting cock – urishqoq, janjalkash. Lekin bunday frazeologik birliklarning aksariyati, ya'ni zoonimlar bilan qiyoslanayotgan birliklar pragmatik ma'noning ekspressiv komponenti sifatida xizmat qiladi. Ya'ni mensimaslik, nafratlanish, jirkanch ohangi bilan aytiladigan frazeologik birliklar guruhidir. Bunday birliklar odatda prez. (презрительно) – nafratlanib, jirkanib, prenebr. (пренебрежительно) – mensimaslik, neodobr. (неодобрительно) – hurmatsizlik kabi izohlar bilan beriladi: an old bird (пренебр.) – kampir, chol; an old cat (пренебр.) – vaysaqi, yovuz kampir; mutton dressed as lamb (неодобр.) – yosh ko'rinqoqchi bo'lgan kampir, Tom Thumb – (презр.) pastkash, old bloke (пренебр.) – munkaygan, achigan, aljiragan chol.

G. Hakimova ingliz tilida zoonimlar orqali ifodalangan frazeologik birliklarda insonning turli xil belgi-xususiyatlari, ya'ni uning axloqiy, intellektual, ijtimoiy belgilarini ijobiy va salbiy ma'noli guruhlariga ajratib o'rgangan. Tahlil natijalariga ko'ra, ijobiy ma'noli zoonomik komponentli frazeologik birliklar asosan 1000 ta birliklarning 30% ini tashkil etgan bo'lsa, salbiy ma'noda keluvchi frazeologizmlar zoonomik komponentli frazeologik birliklarning 40% ini tashkil etgan [9]. Demak, insonning salbiy xususiyatlarini ifodalovchi zoonomik frazeologik birliklar uning ijobiy xususiyatlarini ifodalovchi frazeologik birliklarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi.

Ayolni biron-bir predmetning qismi bilan atalishi ham gender nomutanosiblikning ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi: a piece of flesh – “tananing bir qismi” qiz, juvon; a bit of goods – “tovar”, ayol; a piece of fluff – “momiq, pat”. Erkaklarning ayollarning ko'nglini olishdagi harakatlari, ya'ni ularning hushdorligini tasvirlovchi frazeologik birliklar: dance attendance on smb. – ayollarning orqasidan yugurmoq, chirmashib olmoq; sugar daddy – boy, qari jazman; a gay Lothario – xotinboz; ladies' man – xotinlarni ko'nglini ovlovchi; pay court to smb – hushdorlik qilmoq.

Xulosa. Ingliz va o'zbek frazeologik birliklari va paremiyalarining gender tahlili natijalariga ko'ra shu narsa ma'lum bo'ldiki, har ikki tilda ham ayolning salbiy ifodasi uning ijobiy ifodasidan ustun turadi. Bu jamiyat a'zolarining salbiy xususiyatga nisbatan munosabatini belgilaydigan alomatdir. O'zbek tilida frazeologik birliklarning ko'p qismini xalq ijodiyoti bilan bog'liq bo'lgan maqollar tashkil etsa, ingliz tilida quyi martaba vakillariga nisbatan qaratilgan yo'nalish hukmrondir. Ayol va erkaklarning fe'l-atvoridagi xususiyatlar tahlili har ikki tilda erkaklarga “botirlik” va “jasurlik” kabi xislatlar tegishli ekanini ko'rsatdi. Biroq o'zbek tilida ular yorqinroq tasvirlangan. Erkaklarning kuchsizligi va qat'iyatsizligini (onasining erkasi kabi) ifodalovchi frazeologik birliklar ham har ikki tilda aks etgan, lekin ingliz tilida bunday frazeologizmlar ko'proq uchraydi.

Ayol va erkaklarning fiziologik xususiyatlaridan “tashqi ko'rinish” konseptual qatlamining tahlili ingliz ayollari uchun tashqi ko'rinish muhimligini ko'rsatdi. O'zbek tilida bu qatlam

umumiy holda tasvirlanib, o'zbek ayolining tashqi go'zalligi uning ichki go'zalligi kabi “ayol – uy bekasi” va “ayol – ona” timsollarida yorqin ifodalanadi.

ADABIYOTLAR

1. Адам & Ева: Альманах гендерной истории: Сб. науч. тр. института всеобщей истории РАН. – М.: Алетейя, 2003. – 472 с.
2. Атаханова Г.Ш. Номинации “возраст человека” в когнитивно- прагматическом и лингвокультурологическом аспектах (на материале англ. языка): Автореф. дис.... канд.филол.наук. – Т., 2006. – 20с.
3. Ашурова Д.У. Коммуникативно-когнитивная теория текста // Linguistics. - Тошкент, 2010. – С. 17-24.
4. Колосова О.А. Когнитивные основания языковых категорий (на материале современного английского языка): Автореф. дисс. ... док-ра филол. наук. – Москва, 1996. – 26с.
5. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – 274 б.
6. Жўраева Б.М. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз. дис. автореф. – Самарқанд, 2002. –23 б.
7. Реймов Б.Х. Фразеологические единицы английского языка характеризующие эмоциональное состояние человека: Автореф. дис ... канд.филол.наук. – Ташкент, 2005. – 22с.
8. Зыкова И.В. Специфика гендерной маркированности английских идиом // Гендер: язык, культура, коммуникация. – Москва: МГЛУ, 2001. – С. 150-159.
9. Хакимова Г.Э. Зоономик компонентли фразеологик бирликларнинг структуравий ва семантик хусусиятлари (инглиз тили материали асосида): Филол. фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 2007. – 151 б.